

## Farg'onalik talabalar bilan uchrashuv

✘ O'z FA akademigi M.M.Mirsaidov va TIQXMMI prof. T.M.Mavlonovlar shu yilning 5-6 aprel kunlari Farg'ona Davlat universiteti va Farg'ona Politehnika institutida uchrashuv o'tkazdilar. Ushbu uchrashuvda institut rektori O.X.Otaqulov boshchiligida institutning iqtidorli talabalari, barcha magistr, doktorant va yosh o'qituvchilari qatnashdilar.

Farg'ona Davlat universitetida o'tkazilgan uchrashuvda esa universitet rektori prof. R.X.Maksudov, barcha prorektor, dekan, kafedra mudirlari, institutning iqtidorli talabalari, magistr, doktorant va yosh o'qituvchilari qatnashdilar. M.Mirsaidov o'z so'zida yurtboshimizning fanda erishilgan yutuqlarning amaliyotga tadbiiq qilinishiga katta e'tibor berayotganligiga, yuqori natijalarga erishgan ilmiy xodimlar albatta kelgusida taqdirlanishiga hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan to'la imkoniyat yaratilayotganligini aytib o'tdi.

Hurmatli Prezidentimiz ilmdagi eng katta ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot va oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan yoshlardan kutayotganligini va bu bajarilayotgan ilmiy ishlar, innovatsiya g'oyalari, yangi texnologiyalar va ularning tadbiiq'i bilan yakunlanishi haqida ham M.Mirsaidov gapirib o'tdi. Yoshlar va universitet xodimlari M.Mirsaidovga ko'p savollar berdilar. Bu savollarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat bo'ldi:

Oxirgi davrlarda mexanika fanida qanday yutuqlarga erishildi,? Sizning ilmiy ishingizning mohiyati nimadan iborat, ilmiy ishlaringizning fizika va matematika fanlari bilan qanday bog'langan joylari bor? ✘ O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qaerda quriladi, shu stansiyaning bizda qurish shartmi, institutingizda sho'rlanishga qarshi qanday ishlar olib borilayapti, nima uchun Sirdaryo viloyatida drenaj tizimi ishlamayapti, energiya olish uchun shamoldan foydalansak bo'lmaydimi, suv tanqisligi muammosi bizning davlatimizda yechilishi uchun qanday ishlar olib borilayapti kabi savollar bilan birga boshqa fizikaga, matematikaga, energetikaga tegishli bir qancha savollarni berdilar.

Berilgan barcha savollarga M.Mirsaidov to'liq javob qaytarishga harakat qildi. Shu bilan birga M.Mirsaidov o'z so'zida ilmda yuqori natijalarga erishish uchun yoshlarimiz tinmasdan mehnat qilib, yaxshi o'qishlari va har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lish uchun esa chet tillarini yaxshi bilishi va kitoblarni ko'p o'qishga harakat qilishlari kerak deb ta'kidladi.

M. Mirsaidov kelajakda davlatimiz tomonidan qo'yilayotgan dolzarb muammolarni yechish uchun bu uchrashgan ikkita oliy o'quv yurtida yetarli sharoit borligini, bu oliy o'quv yurtlari bilan O'zR FA va boshqa institutlar o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish kerakligini aytib o'tdi. Bo'lib o'tgan suhbatlardan keyin yoshlarda ishonch va ko'tarinki ruh paydo bo'lganligini oliy o'quv yurtlari rahbarlari o'z so'zlarida aytib, Prezidentimiz bildirgan ishonchni institut va universitet yoshlari albatta oqlashiga ishonch bildirdi. So'zga chiqqan yoshlar ham, Prezidentimizning ishonchini oqlashga harakat qilishga va'da berdilar.

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**